

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**



**“ISLOM TARIXI VA MANBASHUNOSLIGI, FALSAFA  
KAFEDRASI**

**FALSAFA  
FANIDAN MUSTAQIL TA‘LIMNI TASHKIL  
ETISH BO‘YICHA  
USLUBIY KO‘RSATMALAR  
(tasviriy san`at va muhandislik grafikasi  
talabalari uchun)**

Buxoro-2021

**Muallif: Islom tarixi va manbashinosligi,**

**falsafa kafedrasi o`qituvchisi**

**M.F. Norova**

Mazkur uslubiy ko`rsatma oliy ta`lim muassasalari talabalari uchun mo`ljallangan bo`lib, unda Falsafa fanidan mustaqil ta`lim ishlari mavzulari, mustaqil ta`lim ishlarini tayorlashda foydalanishi mumkin bo`lgan ilg`or pedagogik texnologiyalar, shuningdek, mustaqil ta`lim mavzulariga doir adabiyotlar ro`yxati hamda internet saytlari keltirilgan

**Taqrizchilar:**

**f.f.n., dots. B.B.Namozov**

**s.f.f.d.(PhD) R.G`Jumaev**

Buxoro davlat universiteti 2021 yil, 26 – oktabr O`quv-uslubiy Kengashining 2- sonli majlisida ulubiy ko`rsatma sifatida nashr etish uchun tavsiya etilgan.

© **BuxDU**

## Kirish

Falsafa hamma davrlarda ham yuksak ahamiyat kasb etib kelgan fandır. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin yosh avlodni ahloqiy jihatdan etuk, barkamol qilib tarbiyalash maqsadida ahloqshunoslik yangi jamiyatda tobora yuksak mavqega chiqib bormoqda. Chunki axloq – ma'naviyatning o'zagi, insof va adolat tuyg'usidir. Barcha ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy muammolarni hal etish imkoniyati inson shaxsini tarbiyalash orqali yaratilgan.

Axloq inson ruhiy kamolotining muhim mezonlaridan birini tashkil qiladi. U millat abadiylikini va mamlakat taraqqiyotini ta'minlashdagi ustuvor omil hisoblanadi. Axloqning ana shu muhim roli va ahamiyatidan kelib chiqqan holda, milliy-ma'naviy tiklanish, yoshlarni yuksak ma'naviyat sohibi va barkamol inson qilib tarbiyalash mustaqilligimiz sharoitida davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Ayniqsa, talabalarning milliy o'z-o'zini anglashlarida, millatparvarlik va vatanparvarlik tuyg'ularining mustahkamlanishida mazkur kursning o'qitilishi ijobiy rol o'ynamoqda. Ularga e'tiqod, iymon, halollik, poklik, mehr-shavqat kabi tuyg'ularni shakllantirishga, o'z millati va vatanining manfaatlarini tushunib etishlariga yordam bermoqda.

Mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, tarixiy xotira an'ana va qadriyatlarning tiklanishi munosabati bilan estetika fani oldida ham yangi vazifalar paydo bo'lmoqda.

Estetika O'zbekistonning mustaqillik sharofatida o'quv-tarbiya vazifalaridan kelib chiqib o'z masalalarini bayon qilmoqda. Estetika fani talabalarni shaxs sifatida ham, fuqarolik jamiyati a'zosi sifatida ham - har jihatdan go'zallikka oshno, yuksak estetik did egasi qilib tarbiyalashga ulkan hissa qo'shishi bilan belgilanadi.

Mantiq fani talabalarni to'g'ri fikrlashning qonun qoidalari va mantiqiy shakllari bilan tanishtirish asosida, erkin fikr yurita oladigan barkamol insonlar etib tarbiyalash bilan birga ularda yangi turmush va tafakkur tarzini qaror toptirishda xizmat qiladigan fandır.

Falsafa fani bo'yicha mazkur uslubiy qo'llanma talabalarning seminar darslarini o'zlashtirishga yaqindan yordamberib, ularda odob, ahloq, go'zallik va nafosat hamda to'g'ri fikrlash qobiliyatlarining o'sishiga yordam beradi. Shuningdek, talabalarga adabiyotlarni to'g'ri tanlash, mavzu mohiyatini anglash, mustaqil tayyorgarlik ko'rish kabi vazifalarni amalga oshirishda uslubiy ko'rsatma asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur fandan tuzilgan uslubiy qo'llanma fan dasturi asosida tayyorlandi. Ushbu qo'llanmani kelajakda to'ldirilgan va boyitilgan holda chop etish zaruriyatini hisobga olib sizlardan fikr va mulohazalaringizni kutamiz.

Uslubiy qo‘llanmada mustaqil ishlash uchun mavzular nomi, har bir mavzuni o‘rganish uchun qisqacha amaliy maslahatlar hamda tegishli adabiyotlar ro‘yxati berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatiga kirib, o‘zaro ilmiy va amaliy aloqalarni mustahkamlab borayotgan bir sharoitda turli konfessiya vakillari bilan muloqot qilishning yuksak madaniyatiga erishish katta ahamiyat kasb etadi.

Ushbu fanni o‘qitishdan asosiy maqsad talaba-yoshlar ongi va qalbiga milliy va umuminsoniy ma‘naviy qadriyatlarni singdirish orqali ularda yuksak ma‘naviyat va ma‘naviy qashshoqlashuvning inson va jamiyat hayotidagi mohiyatni tushunib etish hamda yuksak ma‘naviyatga ega bo‘lish malakalarini shakllantirish, talabalarga milliy va diniy qadriyatlarning tarixan mushtarakligi, ularning umuminsoniy qadriyatlar ila uyg‘unligi, bu qadriyatlarning hozirgi mustaqil O‘zbekiston sharoitidagi ahamiyatini yanada aniqroq yoritib berib, ularda dinga nisbatan to‘g‘ri yondashuvni shakllantirish va jamiyat uchun yuksak falsafiy dunyoqarashga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalashdan iborat.

Mustaqil ishni tayyorlashda mazkur fanni o‘rganish, uning mazmunini mukammal o‘zlashtirishda talabalar eng avvalo milliy ma‘naviy qadriyatlarni, inson va jamiyat hayotida ma‘naviyatning o‘rni va ahamiyati to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyasi, mustaqillik yillarida mamlakatimizda milliy-ma‘naviy tiklanish borasida amalga oshirilgan islohotlar, erishilgan yutuqlar haqida batafsil ma‘lumotga ega bo‘lmog‘i lozim.

Ushbu mustaqil ishni bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma “Falsafa” fani namunaviy va ishchi dasturlari asosida tayyorlandi.

Talabalar mashg‘ulotlarga mustaqil tayyorlanishlarida quyidagi internet saytlaridan foydalanishlari mumkin:

1. “Xalq so‘zi” gazetasi – [www.info.XS.Uz](http://www.info.XS.Uz).
2. “Turkiston” gazetasi – [www.turkiston.sarkor.uz](http://www.turkiston.sarkor.uz).
3. “Ma‘rifat” jurnali – [www.ma.rifat-inform](http://www.ma.rifat-inform).
4. “Jamiyat va boshqaruv” jurnali – [www.rzult.academy.freenetuz](http://www.rzult.academy.freenetuz).
5. “Moziydan sado” jurnali – [www.moziy.dostlink.Net](http://www.moziy.dostlink.Net)
6. [www.press-servise.uz](http://www.press-servise.uz).
7. [www.literature.uz](http://www.literature.uz)
8. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz).

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va  
o‘rta maxsus ta’lim vazirligining  
2009 yil 14 avgustdagi 286-sonli  
buyrug‘i bilan tasdiqlangan**

**Talabalarni mustaqil ta’limini tashkil etish va  
nazorat qilish bo‘yicha  
YO‘RIQNOMA**

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da chuqur nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda tanlangan sohasi bo‘yicha mustaqil faoliyat ko‘rsata oladigan, o‘z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondoshgan holda muammoli vaziyatlarni to‘g‘ri aniqlab, tahlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilanadi.

Ma’lumki, axborot va bilimlar doirasi tez sur’atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma’lumotlarni faqat dars mashg‘ulotlari paytida talabalarga etkazish qiyin.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, talaba mustaqil ravishda shug‘ullansa va o‘z ustida tinimsiz ishlagina bilimlarni chuqur o‘zlashtirishi mumkin. Talabalarning asosiy bilim, ko‘nikma va malakalari mustaqil ta’lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko‘rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo‘ladi.

Shuning uchun talabalarning mustaqil ta’lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart- sharoitlarni yaratish, dars mashg‘ulotlarida talabalarni o‘qitish bilan bir qatorda ularni ko‘proq o‘qishga o‘rgatish, bilim olish yo‘llarini ko‘rsatish, mustaqil ta’lim olish uchun yo‘llanma berish oliy ta’lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Talaba mustaqil ishi (TMI) – muayyan fandan o‘quv dasturida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakaning ma’lum bir qismini talaba tomonidan fan o‘qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o‘zlashtirilishiga yo‘naltirilgan tizimli faoliyatdir.

O‘qishning boshlang‘ich bosqichlarida TMI ni tashkil etish bir qator vazifalar bilan bog‘liq. Ayniqsa, birinchi kurs talabalarining ta’limning navbatdagi turi – oliy ta’lim talabalarga ko‘nikishi qiyin kechadi. Chunki ular ta’lim olish jarayonida o‘z mustaqil faoliyatlarini tashkil qilishni deyarli bilishmaydi. Ma’lumotlarni qaysi manbadan, qanday qilib topish, ularni tahlil qilish va zarurlarini ajratib olib tartibga solish, konspektlashtirish, o‘z fikrini aniq va yorqin ifodalash, o‘z vaqtlarini to‘g‘ri taqsimlash, shuningdek, aqliy va

jismoniy imkoniyatlarini to'g'ri baholash ular uchun katta muammo bo'ladi. Eng asosiysi, ular mustaqil ta'lim olishga ruhan tayyor bo'lishmaydi.

Shuning uchun har bir professor-o'qituvchi dastlab talabada o'z qobiliyati va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg'otishi, ularni sabr-toqat bilan, bosqichma-bosqich mustaqil bilim olishni to'g'ri tashkil qilishga o'rgatib borish lozim bo'ladi. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda o'zlashtiriladigan bilim va ko'nikmalarning kursdan-kursga murakkablashib, kengayib borishini hisobga olgan holda ularning tashabbuskorligi va rolini oshirib borish zarur. Shundan mustaqil ta'limga ko'nikma boshlagan talaba faqat o'qituvchi tomonidan belgilab berilgan ishlarni bajaribgina qolmay, o'zining ehtiyoji, qiziqishi va qobiliyatiga qarab, o'zi zurur deb hisoblagan qo'shimcha bilimlarni ham mustaqil ravishda tanlab o'zlashtirishga o'rganib boradi.

Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi jihatlar e'tiborga olinishi lozim:

- o'qish;
- muayyan fanning o'ziga xos xususiyati va o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi;
- talabaning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi (tayanchbilimi);
- fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasi;
- talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi;
- mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi semestr-dan-semestr-ga ko'nikmalar hosil bo'lishiga muvofiq ravishda o'zgarib, oshib borishi lozim. Ya'ni, talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularni topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashishga o'rgatib borish kerak bo'ladi.

TMIning tashkil etishda talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;
- amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish;
- ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash;
- kurs ishi (loyihalari)ni bajarish;
- bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyasi uchun materiallar to'plash;
- hisob-kitob va grafik ishlarini bajarish;
- maket, model va badiiy asarlar ustida ishlash;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali

savollar va topshiriqlartayyorlash;

- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;
- amaliy mazmundagi nostandart masalalarni echish va ijodiyishlash;
- uy vazifalarini bajarish vaboshqalar;

Fan xususiyatidan kelib chiqqan holda talabalarga mustaqil ish uchun boshqa shakllardagi vazifalar ham topshirilishi mumkin. Talabalarga qaysi turdagi topshiriqlarni berish lozimligi kafedra tomonidan belgilanadi.

Topshiriqlar puxta o'ylab chiqilgan va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, talabalarning auditoriya mashg'ulotlarida olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va to'ldirishga xizmat qilishi kerak.

### **Mavzuni mustaqil o'zlashtirish**

Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o'quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko'rsatish lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan foydalanib ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o'zlashtirish qiyin bo'lsa, savollar paydo bo'lsa, adabiyotlar etishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k.) o'qituvchidan maslahatlar oladilar.

Mustaqil o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha tayyorlangan matn kafedrada himoya qilinadi.

### **Referat tayyorlash**

Talabaga qiyinchilik darajasi uning shaxsiy imkoniyatlari qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo'lgan biror mavzu bo'yicha referat tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari qo'shimcha adabiyotlardan (monografiyalar, ilmiy, uslubiy maqolalar, internetdan olingan ma'lumotlar, elektron kutubxona materiallar va h.k.) foydalanib materiallar yig'adi, tahlil qiladi, tizimga soladi va mavzu bo'yicha imkon darajasida to'liq, keng ma'lumot berishga harakat qiladi. Zarur hollarda o'qituvchidan maslahat va ko'rsatmalar oladi. Yakunlangan referat kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

### **Ko'rgazmali vositalar tayyorlash**

Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar (jadvallar, chizmalar, rasmlar, xaritalar, maketlar, modellar, grafiklar, namunalar, musiqiy asar, kichik badiiy asar va h.k.) tayyorlash topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum

ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga topshirish ham mumkin.

Talaba ko'rgazmali materiallardan foydalanish bo'yicha yozma ravishda tavsiyalar tayyorlaydi va kafedrada himoya qiladi.

### **Mavzu bo'yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash**

Talabaga muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo'lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish topshirladi.

Bunda o'qituvchi tomonidan talabaga testga qo'yiladigan talablar uni tuzish qonun-qoidalar, qanday maqsad ko'zda tutilayotganligi, turli savollar tuzishda mavzuning munozarali momentlarini qanday qilish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riqlar beriladi.

Konsultatsiya paytlarida bajarilgan ishlarning qo'yilganligi va talablarga javob berish darajasi nazorat qilinadi (qayta ishlanishi, aniqlashtirish yoki to'ldirish taklif etilishi mumkin).

### **Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash**

Talaba biron bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabani o'zi tanlashi ham mumkin (referativ) harakterda maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshirishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalardan mavzuga tegishli materiallar to'playdi, tahlil qilishga zarurlarini ajratib olib, tartibga soladi, shaxsiy tajribasi va bilimi, ilmiy natijalariga asoslangan holda qo'shimchalar, izohlar kiritadi, o'z nuqtai-nazarini bayon etadi va asoslaydi. Bunda talaba o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi. Tayyorlangan maqola, tezis yoki ma'ruza kafedrada himoya qilinadi.

### **Amaliy mazmundagi nostandart masalalar echish va ijodiy ishlash**

Bir mavzu yoki bo'lim bo'yicha nostandart, alohida yondashib qilinadigan, nazariy ahamiyatga ega bo'lgan amaliy topshiriqlarga yondashish talab qilinadigan ilmiy-ijodiy vazifalar, modellar, namunalar yaratish vazifasi topshirilishi mumkin. Amaliy topshiriqlar masalani hal qilishning optimal variantlarini izlashga va ishlashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Talabani qiziqish va qobiliyatiga qarab, ilmiy xarakterdagi topshiriqlar berish, o'qituvchi bilan hamkorlik ilmiy ishlar tayyorlash va chop ettirishi mumkin.

Talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etishda:

- tizimli yondashish;
- barcha bosqichlarini muvofiqlashtirish va uzviylashtirish;
- bajarilishi ustida qat'iy nazorat o'rnatish;



- tashkil etish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirib borish zarur;  
Mustaqil ish topshiriqlari muvaffaqiyatli yakunlanishi uchun quyidagi talablar bajarilishi lozim:
- maqsad (bilimini mustahkamlash yangi bilimlar o‘zlashtirish, faollikni oshirish, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish h.k.) aniqlashtirilishi;
- vazifa va topshiriqlarning aniq ravshanbelgilanishi;
- topshiriqlarni bajarish algoritmi va metodlaridan talabalarning etarli darajada xabardorbo‘lishi;
- maslahat va boshqa yordam turlarining to‘g‘ri belgilanishi (yo‘llanma va ko‘rsatma berish, mavzuning mazmuni va mohiyatini tushuntirish, muammoli topshiriqlarni bajarish usullari bo‘yicha tushuncha berish, ayrim muammoli momentlarni birgalikda hal qilish vah.k.);
- hisobot shakli va baholash mezonini aniqlash;
- nazorat vaqti, shakli va turlarini aniq belgilab olish (amaliy seminar, laboratoriya mashg‘ulotlari, konsultatsiya uchun yoki nazorat uchun maxsus ajratilgan vaqt, ma’ruza yo referat matni, bajarilgan topshiriqlar daftari, nazorat ishlari, uy vazifasi daftari, kurs ishlari, test, maqola, nostandart topshiriqlar, savollar, maqola, ko‘rgazmali jixozlar va ijodiy ishlar, savol-javob, bajarilgan ish mazmuni va mohiyatini tushuntirib berish, yozma shaklda bayon qilish vah.k.).

**Talabalar mustaqil ishini shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin:**

**Auditoriyada amalga oshiriladigan TMllari**

**O‘tilgan mavzuni qayta ishlash, kengaytirish va mustahkamlashga oid topshiriqlar bajariladi.**

**Auditoriyadan tashqari amalga oshiriladigan TMllari**

O‘quv dasturidagi ayrim mavzularni mustaqil holda o‘zlashtirish, uyga berilgan vazifalarni bajarish, amaliy va laboratoriya ishlariga tayyorgarlik ko‘rib kelish, ijodiy va ilmiy-tadqiqot xarakterdagi ishlar va h.k.

Birinchi tur ishlari talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini o‘zlashtirib borish darajasi, amaliy mashg‘ulotlarga (amaliyot, laboratoriya, seminar darslari) tayyorgarlik saviyasi va uy vazifalarining bajarilish sifatini tekshirish maqsadida, odatda, nazorat ishlari olish, savol-javob, suhbat, munozara, amaliy topshiriqlarni bajartirib ko‘rish va h.k. usullarda asosan amaliyot darslarida nazorat (joriy nazorat) qilinadi.

Joriy nazoratda talabaning dars paytida o‘tilgan materiallarni o‘zlashtirish va uyga berilgan topshiriqlarni bajarishdagi faolligi, bajarish saviyasi va o‘zlashtirish darajasi e’tiborga olinadi.

Ikkinchi tur ishlari fanning ishchi o‘quv dasturida auditoriyadan tashqarida o‘zlashtirilishi belgilangan mavzu bo‘yicha ma’lumot va axborotlarni mustaqil ravishda izlab topish, tahlil qilish, konspektlashtirish (yoki referat tarzida rasmiylashtirish) va o‘zlashtirish, ijodiy yondashishni talab qiladigan amaliy

topshiriqlarni bajarish ko‘rinishida amalga oshiriladi. Bu turdagi ishlarni bajarish jarayoni va o‘zlashtirish sifatining nazorati darsdan tashqari paytlarda, maxsus belgilangan konsultatsiya soatlarida amalga oshiriladi.

### **Talabalar mustaqil ishini baholash**

TMI natijalari amaldagi “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to‘g‘risidagi Nizom”ga asosan baholab boriladi.

### **Mustaqil ta’limni baholash**

Talabalarning mustaqil ta’limi jarayoni fandan “Mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish bo‘yicha Nizom” asosida tashkil etiladi. Bunda talabaning mustaqil ta’lim faoliyati referat prezentatsiya, ilmiy maqola va boshqa shakllarda taqdim etiladi va o‘quv semestri davomida maksimal 10 ballda baholanadi.

Mustaqil ta’lim jarayonida talabalarning faoliyatini baholashda mavzuga talabaning mantiqiy to‘g‘ri yondashganiga asosiy e’tibor qaratiladi. Prezintatsiya, amaliy ish va ilmiy maqola tayyorlashda talabaning mavzu bo‘yicha fanning eng so‘nggi yangiliklari va statistik ma’lumotlardan foydalanganligiga alohida e’tibor beriladi.

Mustaqil ta’lim jarayonida talabalarni fan bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimlarini prezentatsiya, referat, ilmiy maqola shaklida tayyorlashlariga alohida e’tibor qaratiladi. O‘quv fani bo‘yicha mustaqil ish tayyorlash quyidagi vazifalarni hal etishni nazarda tutadi<sup>1</sup>:

- O‘quv predmeti dolzarb nazariy masalalari bo‘yicha bilimlarini chuqurlashtirish, talaba tomonidan mavzuga ushbu olingan nazariy bilimlarni ijodiy qo‘llash ko‘nikmasini hosil qilish.
- Tanlangan kasbiy sohada milliy g‘oya tamoyillarini amaliy jihatdan qo‘llash imkoniyatlari va muammolarini o‘zlashtirish.
- Tanlangan mavzu bo‘yicha har xil adabiy manbalarni (monografiya, davriy nashrlardagi ilmiy maqolalar va shu kabilar) o‘rganish qobiliyatini takomillashtirish va ular natijalari asosida tanqidiy yondashgan tarzda mustaqil hamda bilimdon holda materialni ifoda etish, ishonchli xulosa va takliflar qilish.
- Yozma ko‘rinishdagi ishlarni to‘g‘ri rasmiylashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Prezentatsiya Power point dasturi tayyorlanadi, mustaqil ishning asosiy qismini lo‘nda va aniq nomiga ega savol va kichik savolchalar (qismchalar)ga bo‘lib chiqish zarur.

---

<sup>1</sup>Қаранг: Ходиев Баходир Юнусович, Голиш Людмила Владимировна. Мустақил ўқувфаолиятини ташкил этиш усул ва воситалари (биринчи босқич талабаларига ёрдам тариқасида): Ўқув-услугий қўлланма –Т.: ТДИУ, 2010.–Б.97

Kirish qismida nazariy va amaliy jihatdan mavzuning dolzarbligi asoslanadi, maqsadlar shakllantiriladi va vazifalar belgilanadi.

Agarda prezintatsiya, mustaqil ish monografik (bitta manba va muallif referatlashtirilsa) ko‘rinishda bo‘lsa, kirish qismida:

- muallif haqida qisqacha ma‘lumot (ilmiy darajasi, unvoni, uning mutaxassisligi, boshqa ishlari);
- mavzu manbasining qisqacha bayoni;
- ish maqsadi;
- rubrikasi;
- muallifning tutgan o‘rni va boshqalar keltiriladi.

Prezentatsiya, mustaqil ishning asosiy qismida barcha muhim fikrlar aks ettirilishi zarur. Materialni ifoda etish tavsifiy xarakterga ega bo‘lmasligi kerak. Mos ravishda xulosalari bo‘lgan tahlil, shuningdek matn bilan uzviy bog‘langan statistik materiallar tahlili bo‘lmog‘i lozim. Statistik ma‘lumotlarni jadval holiga keltirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Statistik ma‘lumotlar asosida diagrammalar, grafiklar, gistogrammalar qurish u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tushunarliroq ifoda etishga yordamberadi.

Prezentatsiya, mustaqil ishda keltiriladigan barcha jadvallar, diagrammalar, grafiklar, sxemalar, rasmlar nomlanishi va tartib raqami qo‘yilishi kerak. Ular tagiga ushbu statistik ma‘lumotlar olingan manbalar betlari ham ko‘rsatilgan holda qo‘yilishi qat‘iy talab etiladi. Matnda keltiriladigan barcha raqamlar tegishli manbalarga havolalarni keltirilishi talab etiladi. Matnda iqtibos keltirilsa yoki mualliflar ilmiy-tadqiqot ishlaridagi xulosalar, qaydlar, mulohaza va fikrlardan foydalanilgan holatda muqarrar ravishda havolalar bo‘lishi lozim.

Xulosa tanlangan mavzuni o‘rganish natijasida talaba qilgan xulosalarni o‘z ichiga oladi, shuningdek, hal etilmagan va kelgusida hal etilishi talab etiladigan savollarga bag‘ishlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati** ma‘lum bir tartib asosida tuziladi:

1. Rahbariy adabiyotlar
2. Prezident asarlari;
3. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari;
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari;
3. O‘zbekiston Respublikasi hukumati qarorlari;
4. Me‘yoriy aktlar, ko‘rsatmalar;
5. Davriy nashrlarda chop etilgan kitoblar, darsliklar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, maqolalar. Manbalar bibliografik qaydida quyidagilar ko‘rsatiladi: muallif ismi va sharifi, kitob nomi, chop etilgan manzilgohi, nashriyot nomi va chop etilgan yili. Agarda maqola jurnal (gazeta)da chop etilgan bo‘lsa, jurnal(gazeta) nomi, tartib raqami va yili, beti keltiriladi.

Prezentatsiya, mustaqil ish, ilmiy maqola ravon tilda aniq yozilgan bo'lishi va jalb etadigan ko'rinishga ega bo'lmog'i lozim. So'zlar qisqartirilishiga, faqat umumiy qabul qilinganlardan tashqari, shuningdek, xatoliklarga, tushunarsizliklarga, stilistik tafovutlarga yo'l qo'yilmaydi.

Prezentatsiya, mustaqil ish, ilmiy maqola ilmiy rahbarga taqdim etilishi holatida barcha taraflama maksimal darajada me'yoriga etkazilgan bo'lmog'i lozim.

Ilmiy rahbarga taqdim etiladigan mustaqil ish kompyuterda 14-shrift, 1,5 interval oralig'ida A4 shaklidagi qog'ozning bir tomonida chapdan – 2,5 sm, o'ngdan – 1,5 sm, yuqori va pastidan – 2 sm dan kam bo'lmagan hoshiya qoldirilgan holda terilishi talab etiladi.

Matn sahifalari tartib raqamlariga ega bo'lishi lozim. Tartib raqamlari bir varaqdan ikkinchi varaqqa o'tadigan va 3 betdan boshlanishi (birinchi va ikkinchi varaq - bu titul varag'i va ish rejasi bo'lib, nomerlanmaydi) lozim bo'ladi. Varaq tartib raqami yuqoriga o'rtadan yoki o'ng tomonga qo'yiladi.

Mustaqil ishning hajmi 16-20 betdan oshmasligi lozim. Mustaqil ish quyidagilardan:

- 1) Titul varag'i;
- 2) har bir savol, savolcha (qism) varag'i tartib raqami ko'rsatilgan ish rejasi;
- 3) kirish, tartib raqami qo'yilmaydi;
- 4) manbalarga havolalar keltirilgan savol va savolchalarga (qismlarga) bo'lingan matn ifodasi;
- 5) xulosa, tartib raqami qo'yilmaydi;
- 6) foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;
- 7) jadval, diagramma, grafik, rasm va sxemalardan tashkil topgan ilovadan tashkil topadi.

Ilovalar qat'iy ketma-ket tikiladi.

## **Mustaqil ta'lim mavzulari**

### **II.5. Mustaqil ta'lim**

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Soatlar hajmi
1.	Falsafa turmush tarzi va dunyoni anglash usuli (insho tayyorlash)	2
2.	Abu Nasr Forobiy va G'azzoliyning falsafa ilmiga oid karashlarini qiyosiy tahlil etish (Farobiyning Siyosat falsafasi va G'azzoliyning Kimyo-i-saodat asarlari asosida).	2
3.	Evropa mutafakkirlari Platon, Bekon, R.Dekart, D.Yumning falsafaga oid karashlarini qiyosiy tahlil etish va fikrlarga izoh	2

	berish.	
4.	Parmenid va Melesning borliq haqidagi qarashlaridagi farqlar va umumiylikni aniqlash (Melesning borliq haqida nomli asari asosida esse tayyorlash).	2
5.	Sharq mutafakkirlarining borliq haqidagi qarashlari tasnifi (al-Forobiyning siyosat falsafasi, “Fozil odamlar shahri”, A. Nasafiyning “Zubdat ul xaqoyiq” asarlari asosida).	2
6.	Platon ontologiyasining teistik (metafizik) jihatini Timey dialogidagi g‘oyalari asosida tahlil etish.	2
7.	Noklassik ontologiyaning yunalishlari va mohiyati bo‘yicha esse tayyorlash (M.Xaydeggerning “Borliq va vaqt” asari asosida).	2
8.	Aristotel, Forobiy va Kantning ontologiyasida kategoriyalar tasnifini qiyosiy tahlil etish va farqlarini aniqlash, esse tayyorlash, krossvord tayyorlash.	2
9.	Tabiatshunoslikning zamonaviy konsepsiyalari (esse tayyorlash) (Fizika, ximiya, geologiya, minerologiya, astronomiya, informatika sohasida O‘zbekistondagi kashfiyot va ixtirolar bo‘yicha ma’lumot bazasini tayyorlash)..	2
10.	A.Fitratning “Oila asari”da oila qurish tartiblari va farzand tarbiyasi, “Rahbari najot” risolasining “Baxtsiz odamlarning ikki toifasiga” oid qarashlari bo‘yicha esse tayyorlash, videorolik tanlovini o‘tkazish.	2
11.	Avloniyning “Madaniyat to‘lqinlari” maqolasi va E.Tofflarning “Uchinchi to‘lqin” asarini qiyosiy tahlil etish.	2
12.	Axborotlashgan jamiyat va uning istiqbollari mavzusida esse tayyorlash (A.Toynbi, E. Toffler, S. Xantington asarlarining qiyosiy tahlili asosida)	2
13.	Global jarayonlar dialektikasi mavzusida tahliliy ma’ruza tayyorlash va uning taqdimotini o‘tkazish..	2
14.	Globalashuv, globalistika va barqaror taraqqiyot tushunchalarining o‘zaro aloqasi va farqi mavzusida esse tayyorlash, uning taqdimotini o‘tkazish.	2
15.	Davlat va huquq tizimida din omili mavzusida esse tayyorlash	2
16.	Diniy tashkilotlar faoliyati mavzusida esse tayyorlash.	2
17.	Diniy fanatizmning asoslari va manbalari mavzusida esse tayyorlash	2

18.	Dunyo xalqlari madaniyatidagi umumiylik va farqlar buyicha videorolik tayyorlash.	2
19.	Dunyo xalqlari miflari xaqida ma'ruza matni va krossvord tayyorlash.	2
20.	J.Rumiy va M.Shelerning inson tabiatiga oid qarashlarini qiyosiy tahlil etish.	2
21.	J.Rumiyning "Kuyoshda ham dog' bor" deganda nimani nazarda tutadi (Ichindagi ichindadur asari asosida axloq tarbiyasiga oid esse tayyorlash); J.Rumiyning "ovchi va lochin" rivoyatining mohiyati va uning tarbiyaviy ahamiyatini tahlili etish (Ichindagi ichindadir asari asosida).	2
22.	Zamonaviy ahloqiy tarbiyaning yutuqlari va kamchiliklari buyicha esse tayyorlash.	2
23.	"Islom nurli ma'rifat dini" mavzusida (esse tayyoyorlash).	2
24.	Islomda inson xuquqlari himoyasi, ijtimoiy tenglik adolat va tolerantlik buyicha krossvord tayyorlash.	2
25.	Korrupsiya tushunchasi va uning oqibatlarini mavzusida viktorina o'tkazish, videoroliklar tanlovi tashkil etish (talabalarning viktorinasini o'tkazish).	2
26.	Koevolyusiya va invayronmentalizm: muammo va echim mavzusida esse tayyorlash (O'zbekistonga qizil kitobga kiritilgan hayvonlar va o'simliklar haqida ma'lumotlarni aniqlash) O'zbekiston tabiati mavzusida krossvord tayyorlash.	2
27.	Qur'on sura va oyatlari ma'nosini hozirgi davr vokeligiga bog'lab esse tayyorlash (Klaster yoki T sxemasi usulidan foydalaniladi, sura yoziladi va yonida uning hozirgi davrda amaliyotdagi ifodasi, masalan Qur'onning 96-surasining mohiyati dunyo va O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar misolida ochib beriladi).	2
28.	Al-Forobiy "Fozil odamlar shahri" Nizomul-mulk "Siyosatnoma", Fitrat "Muxtasar islom tarixi", G'azzoliy "Kimyoi saodat", Rumiy J. Masnaviy. rivoyatga sharh, E.Fromm "Dusha cheloveka", S.Xantington "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi", E.To'ffler "Uchinchi to'lqin" asarlarining tahlili.	2
29.	M. Behbudiyning "Padarkush yoxud tarbiyasiz bolaning taqdiri" dramasini saxnalashtirish va namoyish etish (potoklar va guruxlar	2

	aro).	
30.	M. Behbudiyning “YOshlarga murojaat” va “Muxtaram yoshlarga murojaat” maqolalari, Sh. Mirziyoevning YOshlarga murojaatini tahlil etish va esse tayyorlash.	2
31	Qo‘shimcha vazifa: “Ona yurtim tabiati” mavzusida videoroliklar tanlovini tashkil etish.	2
32	Senekaning “Lutsiliyga axloqiy xatlari”ni tahlil qilish va har bir xatning ahamiyatni hozirgi davr nuqtai nazaridan baholash, (talaba har bir xatning mazmunini o‘zining faoliyati bilan bog‘lab ochib berish, o‘z hayotidagi xatolarni aniqlashi lozim).	2
33	Sog‘lom turmush tarzini qaror toptirishda tarbiya shakllarining uzviyligi, estetik tarbiyaning turlari va yo‘nalishlariga oid videorolik tayyorlash.	2
34	Tasavvufning falsafiy jihatlari. (esse tayyorlash).	2
35	Temur tuzuklarining zamonaviy boshqaruv tizimidagi ahamiyati mavzusida esse tayyorlash.	2
36	Terrorizm tushunchasi, shakllari, sabablari va unga qarshi kurash mexanizmlari.	2
37	Tushunish va tushuntirishning o‘zaro dialektikasi mavzusida esse tayyorlash (Gamader, Diltey, Xaydeger asarlari asosida).	2
38	“O‘zbekiston san’ati rivojlanish tarixi va hozirgi zamon” mavzusida taqdimot tayyorlash.	2
39	O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi islohotlar mavzusida talabalar konferensiyasini tashkil etish.	2
40	O‘zbekistonning arxitektura yodgorliklarining qiyosiy tahlili bo‘yicha videorolik tayyorlash, “Mening yurtim” loyihasi doirasida har bir talaba o‘zining viloyatidagi arxitektura yodgorliklarining tarixiga oid taqdimot tayyorlashi maqsadga muvofiq.	2
41	Forobiy va Ibn Sinoning ontologik qarashlarini so‘fizm ontologiyasi bilan qiyosiy tahlil etish.	2
42	N.Tusiyning mantiqiy qarashlari mavzusida esse tayyorlash.	2
43	Ibn Sinoning mantiqiy qarashlari mavzusida esse tayyorlash.	2
44	Forobiyning sillogizm haqidagi ta’limoti mavzusida esse tayyorlash.	2

45	YAssaviy Xoja Ahmadning “Devoni hikmat” asari bo‘yicha esse tayyorlash.	2
	<b>Jami</b>	<b>90 soat</b>

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Абдусамедов А.Е. Динлар тарихи. -Тошкент: ЎзМУ, 2004. -208 б.
2. Очилдиев А. ва бошқалар. Диншунослик асослари (ўқув қўлланма) - Тошкент: “Тошкент ислом университети нашриёт матбаа бирлашмаси, 2013
3. Хасанов А. ва бошқалар. Ислom тарихи (Дарслик). - Тошкент: Тошкент ислом университети матбаа-нашриёт бирлашмаси, 2008.
4. Мўминов А. ва бошқалар. Диншунослик - Тошкент: “Меҳнат”2004.
- 5 Yo‘ldoshxo‘jayev X., Rahimjonov D., Kornilov M. Dinshunoslik - Toshkent: Dinshunoslik - Toshkent: ToshDShI nashriyoti, 2000

### **Mustaqil ta’lim uchun uquv-uslubiy adabiyotlar va eltron ta’lim resuslari ro‘yxati**

#### **Nazariy-metodologik**

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston, 2016. -53b.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. T.: O‘zbekiston, 2017 -484b.
3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: 2017.-
4. Karimov I.A. Asarlar to‘plami. 1-24 jildlar. - T.: O‘zbekiston, 1996-2016.
5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. 2-nashr –T.: Ma’naviyat, 2016, -176b.

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Ахмедова М. Фалсафа. -Тошкент.ЎФМЖ, 2006.
2. Юсупов Э., Мамашокиров С. Фалсафа Дарслик, -Тошкент: 2005.
3. Шермухамедова Н.А. Фалсафа. Тошкент: “Ношир” 2012 й
4. Шермухамедова Н.А. Гносеология. (Учебник) Тошкент: 2009 й
5. Шермухамедова Н А. Фалсафага кириш (Ўқув қўлланма) Тошкент: 2017 й
6. Шермухамедова Н.А. Борлиқ ва ривожланиш фалсафаси. (Ўқув қўлланма) Тошкент: 2017 й
7. Шермухамедова Н.А. Инсон фалсафаси. (Дарслик ) Тошкент: 2016 й
8. Иззетова Э., Пулатова Д. Философия (Учебное пособие) Тошкент; 2017 й
9. М.Шарипов Файзиходжаева Д. Мантик. Ўқув қўлланма. -Тошкент: 2004.
10. Абдусамедов А.Е. Динлар тарихи. -Тошкент: ЎзМУ, 2004. -208 б.
11. Очилдиев А. ва бошқалар. Диншунослик асослари (ўқув қўлланма) - Тошкент: “Тошкент ислом университети нашриёт матбаа бирлашмаси, 2013



12. Хасанов А. ва бошқалар. Ислом тарихи (Дарслик). - Тошкент: Тошкент ислом университети матбаа-нашриёт бирлашмаси, 2008.
13. Мўминов А. ва бошқалар. Диншунослик - Тошкент: "Меҳнат"2004.
14. Yo'ldoshxo'jayev X., Rahimjonov D., Kornilov M. Dinshunoslik - Toshkent: Dinshunoslik - Toshkent: ToshDShI nashriyoti, 2000

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. -Тошкент; Ўзбекистон, 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. - Тошкент; "Ўзбекистон", 2017. - 488 б.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonlik garovi. -Toshkent: O'zbekiston 2017 -53 bet.
4. Ўзбекистон Республикасининг "Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида"ги Қонуни (янги таҳрири), 1998.
5. Ўзбекистон Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги ПФ-4947-сон фармони / Халқ сўзи, 2017 йил 8 феврал.
6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri.-Т.:Yangi asr avlodi, 2016.-318
7. Гусейнов А.А., Апресян Р.Г. Этика. Учебник. -Москва; Гардарики, 2013.
8. Кривсун О.А. Эстетика. Учебник-Москва; Гардарики, 2013.
9. Otamurodav S. Globallashuv va millat. - Toshkent; Yangi asr avlodi. 2008.
11. Pulatova D., Qodirov M., Ahmedova M. va boshq. Falsafa tarixi; Sharq falsafasi. O'quv qo'lanma. -Toshkent: TDSHI.2013.
12. Pulatova D., Ro'zmatova G., Jalolova O'. Axloqshunoslik. O'quv qo'llanma - Toshkent: TDSHI.2013.
13. Po'latova D.A., Fayzixo'jaeva D.E. Mantiq. O'quv qo'llanma.- Toshkent: TDSHL, 201-3.
14. Раматов Ж. Ҳаётга фалсафий нигоҳ. Т.: " ИТА-пресс ", 2017, 380 бет
15. Tulenov J.,Tulnova G.,Tulnova Falsafa. Darslik.- Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
16. To'raev B. Borliq: mohiyati, shakllari, xususiyati. -Toshkent: O'zRFA Falsafa va huquq instituti, 2011.
17. Fayzixo'jaeva D. Mantiq. Izohli lug'at. -Toshkent: Tamaddun, 2015.
18. Falsafa. Mamashokirov S. Tahriri ostida. -Toshkent: Sharq, 2005.
19. Choriyev A. Inson falsafasi. -Toshkent.: O'FMJ, 2006.
20. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Махкам таржимаси. Тошкент: Шарк, 2015. -732 б.
21. Armstrong K Islam. A Short History. -London, 2002.
22. Жабборов И., Жабборов С. Жаҳон динлари тарихи. -Тошкент: Ўзбекистон, 2002
23. Имом ал-Бухорий: Ал-Жамиъ ас-сахих. IV жилдлик. -Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти. 1991-1993.
24. Ислом: бағрикенглик ва мутаассиблик. Масъул муҳаррир З.И. Мунавваров. -Тошкент, 1998,

25. Ислом (энциклопедия). Зухриддин Хуснидинов тахрири остида. Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2004,
26. Муҳаммад Юсуф М С. Ҳадис ва ҳаёт. Т.3. -Тошкент: Шарқ;, 2003.- 255
27. Основы религоведения. Под редакцией И.Н.Яблокова. Изд. Второе, - Москва: 1998
28. Ташанов А. Мутассибликнинг кўринишлари ва оқибатлари. - Тошкент: Академия, 2011. -32 б.
29. Қурони карим маъноларининг таржимаси. Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. -Тошкент: Тошкент Ислом Университет нашриёти, 2001, 2007.
30. Хуснидинов З.М. Ислом йўналишлари, мазҳаблар, оқимлар. - Тошкент: Мовароуннаҳр, 2000.

#### **Axborot manbalari**

1. [www. Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
2. [www.faylasuf.uz](http://www.faylasuf.uz)
3. [www. ziyo.uz](http://www. ziyo.uz)
4. [www. Muslim. uz](http://www. Muslim. uz)
5. [www. religions,uz](http://www. religions,uz)